



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

JAMIYATDA AYOLLARGA BO‘LGAN E‘TIBORNING KUCHAYISHI

Rasulova Shahnoza Abduvasi qizi
Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchisi

Abdusalova Husnora Akmal qizi
Qarshi davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O‘zbekistonda ayollarga nisbatan e‘tiborning kuchayishi, bu boradagi tarixiy an‘analar, mustaqillikdan keyingi huquqiy islohotlar va zamonaviy ijtimoiy siyosat asosida tahlil qilinadi. Maqolada ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar, ularning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi faolligi, ta‘lim va tadbirkorlikdagi ishtiroki yoritilgan. Shuningdek, ayollarning xalqaro maydondagi o‘rni, O‘zbekistonning gender tenglikni ta‘minlash borasidagi tashabbuslari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ayol, gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari, ijtimoiy siyosat, davlat e‘tibori, ayollar bandligi, ta‘lim, siyosiy ishtirok, tadbirkorlik, ayollar salohiyati, O‘zbekiston, qonunchilik, ijtimoiy himoya, zamonaviy jamiyat, xalqaro hamkorlik. Ayol jamiyatning ajralmas bo‘lagi, oila ustuni, ma‘naviyat va tarbiyaning yetakchi manbaidir. Har qanday jamiyatning taraqqiyoti, barqarorligi va insoniylik darajasi avvalo undagi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Ayollarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, iqtisodiy va madaniy hayotda teng ishtirokini kafolatlash demokratik davlat qurilishining ajralmas qismidir. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarga bo‘lgan e‘tibor bosqichma-bosqich yangi mazmun kasb etib, ularning jamiyatdagi mavqei, oila va davlat taraqqiyotidagi roli tobora kuchayib bormoqda. Ayollarning ijtimoiy faolligi, bilim olishga, kasb-hunar egallashga bo‘lgan intilishi va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan imkoniyatlari kengaymoqda. O‘zbekiston davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida gender tengligini ta‘minlash, ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli huquqiy, institutsional va amaliy ishlar olib borilmoqda.

Har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi, ma‘naviy yetukligi va madaniy qadriyatlari, avvalo, undagi ayollarga bo‘lgan munosabat bilan belgilanadi. Ayol — bu nafaqat oila, balki jamiyat asoschisi, millat tarbiyachisi, hayot bag‘ishlovchi zotdir. Ayolga nisbatan hurmat va e‘tiborning kuchayishi — bu inson huquqlari, gender tengligi, ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning bosh mezonidir. O‘zbekiston tarixida ayolga bo‘lgan munosabat madaniyat va qadriyatlarda chuqur o‘rin olgan. Sharq allomalari va adiblarining asarlarida ayol obraziga bo‘lgan e‘tibor, ehtirom juda yuksak



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

baholangan. Tarixiy manbalarda Nodira, Zebuniso, Uvaysiy kabi ayollar ijod va siyosat bilan shug'ullangan, jamoat hayotida faol ishtirok etgan. Sovet davrida esa ayollar ko'proq mehnat kuchi sifatida qaralgan bo'lsa-da, mustaqillikdan keyin O'zbekiston ayollar masalasini mustaqil davlat siyosati darajasiga ko'tardi.

Bugungi kunda O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qator muhim huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 2019-yilda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun, 2020-yilda "Gender tengligi asoslarini ta'minlash to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi ushbu yo'nalishdagi katta qadam bo'ldi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham ayollarning jamiyatdagi o'rni, siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan¹.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilingan. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" deb takidlangan².

Oliy Majlisda ayollar ulushi 30 foizdan oshgan, hukumat va mahalliy boshqaruv organlarida ham ko'plab xotin-qizlar faoliyat yuritmoqda. Ayollar o'z salohiyatini siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy sohalarida to'laqonli namoyon etish imkoniga ega bo'lmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda tahsil olayotgan ayollar soni ortmoqda, fan doktori darajasiga ega bo'lgan ayollar soni esa yildan-yilga oshib bormoqda. Shuningdek, ayollar tadbirkorlik, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish, eksportga yo'naltirilgan kichik ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarda o'z bizneslarini yo'lga qo'yib, oilaviy byudjetga va milliy iqtisodiyotga munosib hissa qo'shmoqda. "Ayollar daftari", "Ayollar banki" va boshqa ijtimoiy dasturlar orqali ular moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda. Aholi orasida ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida rehabilitatsiya markazlari, salomatlik dasturlari, inklyuziv ta'lim va kasb-hunarga yo'naltirish kurslari tashkil etilgan. Imkoniyati cheklangan ayollarning jamiyat hayotiga integratsiyasi uchun ham sharoitlar yaratilyapti.

O'zbekiston BMT, YUNESKO, UN Women kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda gender tengligi bo'yicha qator xalqaro dasturlarni amalga oshirmoqda. Mintaqaviy va global miqyosda O'zbekistonning gender masalalaridagi pozitsiyasi ijobiy baholanmoqda.

¹ Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – T.: Ma'naviyat, 2022.

² Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi - <https://lex.uz/uz/docs/-6445145>



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th June 2025

O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyat hayotida ijtimoiy faolligini oshirishga alohida e‘tibor berildi. Shu sababli mamlakatimizda olib borilayotgan xotin-qizlarga oid islohotlar hamda ijtimoiy faol ayol va uning axloqiy xatti-harakatlarining jamiyat ravnaqidagi o‘rnini tahlil etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan hisoblanadi. Davlat va jamiyat qurilishi, ishlab chiqarish, oila, mahalla, jamoat tashkilotlari, fuqarolik institutlari faolyatida ayollarning ijtimoiy faolligi nihoyatda zarur bo‘lib, ulardagi ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirish va kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Zero, ular jamiyat va millatning tayanchi, shaxsning fazl-u kamoli va axloqiy barkamolligida asosiy o‘rinni egallovchi insonlardir. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF60-son Farmonining ilovasidagi 69 – maqsad – “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash ularning jamiyat hayotidagi faolligini ta‘minlash” deb nomlanib, unda Yangi O‘zbekistondagi xotin-qizlar siyosati bo‘yicha barcha ustuvor masalalar kompleks tarzda teran bayon etilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Davlat vajamiyat boshqaruvida ayollarning o‘rni va mavqegini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolaveradi”.³

Men xulosa qilib shuni aytishim mumkin, bugungi kunda O‘zbekistonda ayollarga bo‘lgan e‘tibor ijtimoiy, siyosiy va huquqiy jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilgan. Bu e‘tiborning kuchayishi nafaqat ayollar salohiyatining ro‘yobiga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Kelajakda ham bu boradagi siyosat izchil davom ettiriladi, ayollar uchun yangi imkoniyatlar ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021.
3. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – T.: Ma‘naviyat, 2022.
4. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining gender siyosatiga oid qarorlari, farmonlari, 2017–2024.
6. www.gendercommission.uz – Gender tengligi bo‘yicha respublika komissiyasi rasmiy sayti.
7. UNDP & UN Women. *Gender Equality Index Uzbekistan*. – Toshkent, 2023.
8. “Ayollar daftari” platformasi bo‘yicha rasmiy hisobotlar (2022–2024).
9. Google.ru
10. Ziyouz.net.

³ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – B.249.